


Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING XALQARO DASTURLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING XALQARO DASTURLARI

Oliy o'quv yurtlarining
60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan

Chirchiq – 2024 y.

UO'K 373.3;37.07

KBK 74.2

X-26

Xudayqulova F.B. /Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari/
O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ilm nurli kitob", 2024. – 180 bet.


O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fanini o'qitish uchun yordamchi manba sifatida yaratilgan. Unda "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan mavzular bo'yicha ishlanmalar berilgan. O'quv qo'llanmada Xalqaro baholash tadqiqotlari, xalqaro baholash mezonlari, PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash, kommunikativ qobiliyat, O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahliliga doir mashg'ulotlarining ishlanmalari tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

A.T.Kurbanova - O'zDSMI, Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri, dotsent, p.f.f.d. (PhD).

K.R.Mamadaliyev - CHDPU dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

ISBN 978-9912-649-87-3



© Xudayqulova F.B., 2024

© "Ilm nurli kitob", 2024

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110500– "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari va professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanma 13 mavzudan iborat bo'lib, har bir mavzu uchun nazorat savollari keltirilgan. O'quv qo'llanmada quyidagi asosiy tushuncha va tamoyillar to'liq yoritib berilgan:

- Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi va me'yoriy asoslari.
- Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati tadqiqot metodlari.
- Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilish
- O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni
- Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish
- PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash tamoyillari
- Hozirgi jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'limning rivoji
- Ta'lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribalar. Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlari
- TIMSS Xalqaro baholash dasturining mazmun va mohiyati
- Matematik savodxonlikni TIMSS, xalqaro baholash tizimi orqali takomillashtirish ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili.

- EGMA va EGRA xalqaro baholash dasturi. O'z-o'zini boshqaradigan EGRA va EGMA ni boshlang'ich ta'limda joriy qilish
- TALIS xalqaro tadqiqotlari
- O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahlili.

Mazkur o'quv qo'llanma talaba yoshlarda yurtimiz ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalarni o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etishga yordam beradi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
1-Mavzu: Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi va meyoriy asoslari	8
2-Mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarining ahamiyati	20
3-mavzu: Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlarini tadbiq qilish.....	28
4-mavzu: O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni	38
5-mavzu: Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish	50
6-mavzu: PIRLS baholash tizimida tanqidiy o'qish va fikrlash tamoyillari	70
7-mavzu: Hozirgi jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'limning rivoji	82
8-mavzu: Ta'lim tizimini rivojlantirishda xorijiy tajribalar. Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlari	95
9-mavzu. TIMSS Xalqaro baholash dasturining mazmun va mohiyati.	106
10-mavzu: Matematik savodxonlikni TIMSS, xalqaro baholash tizimi orqali takomillashtirish	122
11-mavzu: EGMA va EGRA xalqaro baholash dasturi. O'z-o'zini boshqaradigan EGRA va EGMA ni boshlang'ich ta'limda joriy qilish.	130
12-mavzu: TALIS xalqaro tadqiqotlari.	139
13-mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimi va xorij tajribasining qiyosiy tahlili.....	151
GLOSSARIY.....	167
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:	171

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish nafaqat natija bilan tavsiflanadi, balki ta'lim faoliyati – mutaxassis – oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining xossalari, shuningdek, ta'lim maqsadi, mazmuni, metodikasi, tashkil etilishi va texnologiyasiga bog'liq bo'lgan natijalarni shakllantirish omillarini tashkil etadi. Bularning barchasi o'ziga xos xususiyatlar bo'lib, ularning shakllanishiga ongli ravishda ta'sir qilish kerak, shuning uchun ularni samaradorligini oshirish, hamda ta'lim salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida xalqaro ta'lim asosida baholash mezonlariga javob bera oladigan o'quvchi yoshlarni shakllantirish, bo'lajak pedagoglarning asosiy vazifasiga aylangan.

"Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan tanlov fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi - "Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani dasturiga muvofiq, talabalarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, turli tadqiqotlar va g'oyalar yaratuvchichisi sifatida shakllantirish, axborot texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish, bugungi kun pedagogining asosiy dolzarb vazifasi ekanligi dastur mazmun va mohiyatida ko'rsatib berilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida, undan o'rin olgan har bir mavzu qayta ishlanib yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitildi.

"Boshlang'ich ta'limning xalqaro dasturlari" fani oliy o'quv yurtlari talabalarini hozirgi xalqaro maktablar va dasturlar, ularning

vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tadqiqot ishlari kabilar bilan tanishtiradi.

Fanning vazifasi – boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish metodikasiga oid umumiy masalalar bilan tanishtirish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, shakl va metodlarini, o'quv mashg'ulotlarini modellashtirish va ularni integratsiya qilish texnologiyasi, uslubiy tahlil qilish malakalarini shakllantirishdan iborat.